

# Yashil

# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 3

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

*Elektron nashr. 796 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjaye'vich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori  
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori  
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi  
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti  
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
Sevil Piriye'va Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i  
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

### Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti  
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti  
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана.....	10
<b>Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиров Жалолiddин Очилович, Самадов Хомид Самандарович</b>	
Investitsion marketingni rivojlantirish asosida mintaqa investitsiya jozibadorligini oshirish .....	16
<b>Ahmedov Alim Babaniyozovich</b>	
O'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi.....	22
<b>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamanov Alisher</b>	
Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan.....	28
<b>Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna</b>	
Oliy o'quv yurtlarida matematik statistikani o'qitishning xususiyatlari.....	34
<b>Shamsiyev Damin Najmiddinovich, Aymatova Farida Xo'razovna</b>	
Turizm tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari .....	37
<b>Mardonova Dilafuz Kosimovna</b>	
Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti: O'zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari.....	41
<b>Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o'g'li</b>	
Mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli .....	46
<b>Akramov Azamat Ramziddinovich</b>	
Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati .....	53
<b>Iminov Mahmudjon Azimjon o'g'li</b>	
Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi.....	60
<b>Jiyamuratov Rustam Nuriddinovich</b>	
Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim mezonini.....	65
<b>Jo'rayev Behzod Nuraliyevich</b>	
Iste'molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakllantirish.....	70
<b>Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna</b>	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	75
<b>Mirzayeva Nargiza Batirovna</b>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.....	80
<b>Otajonova Charosxon Polvonquli qizi</b>	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	84
<b>Quldoshev Asliddin Tursunovich</b>	
Strategik boshqaruvda xususiy kapital samaradorligini baholash.....	89
<b>Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna</b>	
Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo'llari .....	100
<b>Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna</b>	
Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili .....	105
<b>Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna</b>	
Зарубежный опыт активизации экономической активности домохозяйств.....	111
<b>Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсииков Артемий Александрович</b>	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan.....	116
<b>Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos O'g'li</b>	



Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati .....	121
<b>Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li</b>	
Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar .....	125
<b>Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi</b>	
Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari .....	131
<b>Akobirova Nodira Najmiddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'llari.....	135
<b>Axmedova Nafisa Amirddin qizi</b>	
Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry .....	140
<b>Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna</b>	
Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modellashtirish.....	144
<b>Bobomuratov Imomqul Islamovich</b>	
Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili.....	149
<b>Talipova Dilfuza Nabiyeвна</b>	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	154
<b>Erkinxojiev Ismoiljon Ikromjon o'g'li</b>	
Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue .....	158
<b>Meyliev O. R., Gofurova K.</b>	
Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	166
<b>Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li</b>	
Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan.....	170
<b>Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna</b>	
Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini o'tkazish amaliyoti .....	174
<b>Jo'rayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi</b>	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari.....	178
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b>	
Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish .....	183
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan o'rni va ularning rivojlanishi.....	188
<b>Raxmataliyev Muzaffar Eshdavatovich</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari .....	194
<b>Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna</b>	
O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish.....	200
<b>Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li</b>	
Andijon viloyatida kambag'allik darajasini qisqarishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar .....	214
<b>Musaeva Ziyoda Allayarovna</b>	
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi eksportida marketing muammolari .....	218
<b>Musyeva Shoirazimovna, Agzamov Avazxon Talgatovich</b>	
Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari.....	223
<b>Akramova Nargiza Axrorovna</b>	
Menejmentda ishbiarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qo'llash shart-sharoitlari.....	227
<b>Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi</b>	
Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari .....	231
<b>Nazarova Latofat Toirjon qizi</b>	
O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	235
<b>Nurmuxammedov Matlab Yunusovich</b>	



Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish.....	240
<b>Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li</b>	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	246
<b>O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urazov</b>	
Methodological Aspects for Branding in Private Schools.....	251
<b>Odilova Sitora Sayfitdin qizi</b>	
Совершенство процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора.....	256
<b>Олимов Элёр Фазлиддин угли, Искандаров Суннатилло Бахриддин угли</b>	
Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish .....	261
<b>Rajabov Orzujon Mamasoliyevich</b>	
Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari.....	267
<b>Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna</b>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari .....	275
<b>Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi</b>	
Oliy ta'limda boshqaruv strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi.....	279
<b>Saidqulova Firuza Farmonovna</b>	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari .....	283
<b>Salimov Sherzod Baxtiyorovich</b>	
O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili .....	288
<b>Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna</b>	
Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari.....	294
<b>Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi</b>	
The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions.....	303
<b>Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi</b>	
Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish.....	307
<b>Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich</b>	
Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimlikni baholashni xalqaro stanadartlar asosida takomillashtirish.....	311
<b>Xasanova Nasiba Tolliboy qizi</b>	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari.....	314
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida gibril bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish .....	319
<b>Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li</b>	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан .....	325
<b>Акбарова Лайло Упашевна</b>	
Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari.....	330
<b>Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T., Obidjonov J. T.</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida .....	334
<b>Davlayev G'olib Ashurovich</b>	
Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi .....	337
<b>Djurayeva Dilnoza Davron qizi</b>	
Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari.....	343
<b>J. A. Ismatullayev, D. X. O'rinov</b>	
Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar .....	348
<b>Jorabayev Jasur Abduraxmanovich</b>	



Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi .....	354
<b>Ibragimov M. M., Ergashev O. F.</b>	
Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari .....	358
<b>Karimov Anvar Aktam o'g'li</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	362
<b>Qurbonov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar.....	367
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	373
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	
Paxta-to'qimachilik klasterlari eksport faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	380
<b>Mansurov Saidxo'ja Kamalovich</b>	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muammolari va dolzarb vazifalari .....	386
<b>Musyeva Shoira Azimovna</b>	
Устойчивый и инклюзивный рост: взаимосвязь экономического прогресса с социальным равенством и экологическим управлением .....	390
<b>Нодирбек Холбаев</b>	
Mintaqalarni investitsion jozibadorligini taraqqiyot strategiyasiga ta'sirini statistik baholash.....	396
<b>Nuriddinov Zufar Akbarovich</b>	
Финансирование каракулеводства: преодоление финансовых вызовов в пустынных регионах Узбекистана .....	402
<b>Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич</b>	
O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....	408
<b>Oybek Elmuratov</b>	
Intellectual mulkning iqtisodiy mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari .....	411
<b>Maxmudova Nargiza Davlyat qizi</b>	
Implementation and use of Digital Technologies in Logistics Abstract.....	416
<b>Kushakova Mamura, Koshakova Mukhlisa Surat qizi</b>	
Innovatsion iqtisodiyot tushunchasining mazmun mohiyati .....	421
<b>Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li</b>	
Raqamlashtirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida.....	426
<b>Mamajonova Durdonahon Mamaruzi qizi</b>	
O'zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.....	431
<b>Norqobilov Akobir Iso o'g'li</b>	
Инновационные методы переработки горных отходов для экологической устойчивости в Узбекистане .....	437
<b>Аскарлов Бахтиер Аскарлович, Собирова Мукаддас Хамидуллаева</b>	
Опыт зарубежных стран по стимулированию производства сельскохозяйственной продукции и перспективы внедрения в Узбекистан.....	442
<b>Холиков Сулаймон Уткир угли</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlari.....	447
<b>Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna</b>	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni statistik tahlili.....	452
<b>Sayfullayev Siddik Nosirovich</b>	
Sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash.....	457
<b>Sattorov Shoxrux Maxmudjon o'g'li</b>	



Kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari .....	462
<b>Turdiyeva Uzayda Omirbayevna</b>	
Адаптивный искусственный интеллект в управлении человеческими ресурсами.....	469
<b>Хайдарова Малика Шокирджановна</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljallangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida.....	478
<b>Xayriddinov Shuxrat Botirovich</b>	
Investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risklarni sifat jihatdan baholash usullarining o'ziga xos xususiyatlari .....	482
<b>Shaislamova Nargiza Kabilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash tartib va ularni takomillashtirish yo'llari .....	491
<b>Yunusova Ozoda Anvarjon qizi</b>	
Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda soliq salohiyatini oshirishning nazariy jihatlarini .....	498
<b>E. N. Raximov</b>	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi.....	504
<b>Avazov Iloxom Ravshanovich</b>	
Inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish vositalarini ishlab chiqish.....	509
<b>Djuraeva Guzal Shavkatovna</b>	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	513
<b>Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li</b>	
Korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalarni moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari.....	517
<b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>	
The impact of corporate governance on firm performance and financial stability .....	524
<b>Muhammadyor Yunusov</b>	
Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari.....	537
<b>Musulmonova Shahlo Nasriddinovna</b>	
Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish yo'llari .....	541
<b>Mutalova Dilorom Maxamadjanovna, Kenjaboyeva Nigina</b>	
Iqtisodiy savodxonlik hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi to'g'ri nisbatdagi bog'liqlik munosabatining fundamental asoslari.....	544
<b>Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi</b>	
Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari.....	550
<b>Umarova Hulkar Umidulloevna</b>	
O'zbekistonda korxonalar boshqaruvida kadrlar salohiyatidan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning xorij tajribasi .....	555
<b>Do'stova Aziza Qahramonovna</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimining xususiyatlari.....	559
<b>Iroda Majidova</b>	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning muhim xususiyatlari .....	565
<b>Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li</b>	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini asosiy yo'nalishlari .....	569
<b>Tuychiyeva Vasila Faxriddin qizi</b>	
"Зелёная экономика" как фактор повышения экономического роста страны.....	573
<b>Тураева Адиба Икрамовна</b>	
Oilada sarf-xarajatlar samarasiga erishishning muhimligi.....	580
<b>Xasanov Rustam Rabimovich</b>	
Aholi farovonlik darajasidagi farqlarni tartiblash yo'nalishlari.....	583
<b>Xasanov Rustam Rabimovich, Turdiyev Zoxidjon Rustamovich</b>	



Совершенствование оценки стоимости объектов недвижимости в Узбекистане на основе зарубежного опыта.....	588
<b>Хомитов К. З., Халилова Л. Ш.</b>	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ahamiyati.....	594
<b>Choriyeva Nigina Kaxramonovna</b>	
Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo'llari .....	598
<b>Alimbayeva Sevara Alimbayevna</b>	
Yengil sanoatni rivojlanishida Germaniya tajribasi.....	601
<b>F. Jumaniyazova, G'ulomov Ibroxim Rustam o'g'li</b>	
The efficiency of usage of Islamic finance instruments in security market.....	607
<b>Khasanov Umarbek Begmat ugli</b>	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	613
<b>Mamasoatov Dilshod Ravshanovich</b>	
O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari .....	621
<b>Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li</b>	
Mehnat bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish .....	627
<b>Maxammadiyev M. M.</b>	
Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini optimallashtirish asoslari.....	632
<b>Narzullayeva Gulchehra Salimovna</b>	
Elektron pullarni rivojlantirish yo'llari .....	636
<b>Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li</b>	
Загрязнение окружающей среды в Узбекистане: проблемы, причины и пути решения .....	644
<b>Ишонкулова Феруза Асатовна, Шукуров Тимур Умидович</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalash modeli orqali takomillashtirish .....	649
<b>Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyeвна</b>	
Land Tax Received From Individuals and its Share in the Budget of the Republic of Uzbekistan .....	656
<b>Hakimov Feruz Khurshid ugli</b>	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar tahlili.....	659
<b>Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi, Sharapova Mashxura Azadovna</b>	
Qurilish xizmatlari ma'lumotlar tizimini takomillashtirish imkoniyatlari.....	665
<b>Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich, Nurfayziyev Elyor Zayniddinovich</b>	
Ipotekali kreditlashni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari .....	670
<b>Turdiyev Shaxriddin Erxonovich</b>	
Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari .....	675
<b>Berdiyev Anvar Abdivaliyevich</b>	
Auditda yetarli va mos dalillarni to'plash tartibi .....	681
<b>Meliyev Isroil Ismoilovich</b>	
"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi.....	686
<b>Urunbayev Saparbek Samatovich</b>	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.....	692
<b>Xolmuradov Raxmatilla Ne'matillaevich</b>	
O'zbekiston mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi xususiyatlari va onlayn platformalar.....	699
<b>Baymuradov Shoxrux Maxmudovich</b>	
Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape.....	704
<b>Otaboev Akhmed Makhsudbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasriddinov</b>	



Xalqaro migratsiyaning O'zbekiston mehnat bozori va inson kapitaliga ta'siri.....	709
<b>Tilabova Kumush Farhod qizi</b>	
Анализ и оценка естественного освещения помещений образовательных учреждений.....	714
<b>Пирмухамедова Шахноза</b>	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан...	719
<b>Рузибоева Нилуфар Тулкин кизи</b>	
Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли.....	725
<b>Бибутова Шахло Саъдуллаевна</b>	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning afzalliklari va muammolari .....	730
<b>Axmedova Dilbar Buronovna</b>	
Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati.....	734
<b>Ishmanova Diana Nurmamadovna</b>	
Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari .....	737
<b>Muxtorova Madina Azamat qizi</b>	
Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar .....	741
<b>A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi</b>	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari .....	746
<b>Yodgorova Xalima To'liqinovna</b>	
Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....	752
<b>Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna</b>	
Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir.....	763
<b>Djumabayeva Shaira Xalillayevna</b>	
Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....	769
<b>Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna</b>	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rni .....	778
<b>Valiyeva Sayyora Xushbaqovna</b>	
Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....	784
<b>Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li</b>	
Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri .....	790
<b>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi</b>	



# O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

**Nurmuxammedov Matlab Yunusovich**

Osiyo Xalqaro universiteti "Iqtisodiyot" yo'nalishi magistri



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan. Maqolada masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar yoritilgan va ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** masofaviy bank xizmatlari, internet sayt, risk, bank texnologiyalari, internet tezligi, moliyaviy xizmatlar.

**Abstract:** This article discusses the internal and external factors influencing the development of innovative banking services in the Republic of Uzbekistan. The problems of the development of remote banking services are highlighted here and author's approaches to their solution are proposed.

**Key words:** banking services, Internet site, risk, banking technology, Internet speed, financial services.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье обсуждаются внутренние и внешние факторы, влияющие на развитие инновационных банковских услуг в Республике Узбекистан. Здесь освещены проблемы развития услуг дистанционного банковского обслуживания и предложены авторские подходы к их решению.

**Ключевые слова:** дистанционные банковские услуги, интернет сайт, риск, банковские технологии, скорость интернета, финансовые услуги.

## KIRISH

Itisodiyotning erkinlashuvi sharoitida tijorat banklari muassasalarining keng tarmoqqa ega bo'layotganligi, o'z navbatida, mijozlarga sifatli bank xizmatlari ko'rsatish, ularning bank xizmatiga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish va tijorat banklari o'rtasidagi raqobat muhitini kuchayishiga imkon bermoqda.

O'zbekiston Respublikasining bank tizmini isloh qilishning 2020–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasida "banklarda innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish va faqat bozor shartlari asosida bank xizmatlarini amalga oshirish, bank risklarini boshqarish sifatini yaxshilash va moliyaviy risklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish" bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan <sup>[1]</sup>. Shuningdek, iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish bo'yicha dolzarb maqsad va vazifalarning belgilab berilishi innovatsion bank xizmatlarini kengaytirish, ularning metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning barqarorligini saqlash, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish <sup>[2]</sup> bugungi kunda tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiyotdagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga egadir. Ayniqsa, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha iqtisodiyotimiz tarmoqlari va sohalarida olib borilayotgan islohotlar sharoitida amaldagi xizmatlar sifatini oshirish, yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishni faollashtirish va bunda xorijiy banklar tajribasini keng qo'llash talab qilinadi.

Iqtisodiyotda zaruriy tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirmasdan, bank mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiyalarni amalga oshirmasdan, va texnologik jihatdan yangilarni amalga oshirmasdan turib jahon moliya bozorida mustahkam o'ringa ega bo'lish mushkul. Ushbu belgilangan vazifalarning bajarish zaruriyati hamda respublikamiz tijorat banklarining faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ayrim muammolarning mavjudligi va ularni hal qilishga qaratilgan takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi ushbu tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilaydi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari xori-jlik iqtisodchi-olimlar V.K.Spilnichenko, N.I.Lixodeeva, K.A.Zabrodiskaya, A.O.Zaxarova, Yu.A.Kornilova, A.Simanovskiy, A.Vikulin, V.Usoskin, D.Polfreman, G.Tosunyan, F.Ford, G.Beloglazova, J.Sinki, O.Lavrushin, K.A.Zabrodiskaya, A.O.Zaxarova, J.Matuk, L.R.Miller, A.O.Soldatova, D.Maknoton, K.Barltrop, G.Panova, E.Dolanlar ning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlari – A.Vaxabov, Sh.Abdullayeva, B.Berdiyarov, O.Iminov, N.Jumayev, T.Koraliyev, S.Norkobilov, D.Saidovlarning ilmiy izlanishlarida tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish masalasining nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilingan.

Rus iqtisodchi olimi V.K.Spilnichenkoning fikricha, masofaviy bank xizmatlari – bu informatsion xizmatlarning majmui va mijozning hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni bankka tashrif buyurmasdan bajarishdir. Masofaviy bank xizmatlari telekommunikatsiya tizimi orqali mijozning bank ma'lumotlar bazasiga murojaati bilan izohdanadi [3].

N.I.Lixodeeva esa, bank hisobvarag'iga masofadan xizmat ko'rsatish tizimini mijoz tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda bankka tashrif buyurmasdan, ya'ni masofadan buyurtmalar asosida bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyasi sifatida e'tirof etgan [4].

Yu.A.Kornilovning fikricha "Masofaviy bank xizmatlari – mijozlar tomonidan yuborilgan buyruqlar asosida (bankka tashrif buyurmasdan) odatda kompyuter va telefon tarmoqlaridan foydalangan holda bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalaridir" [5].

Ammo, bugungi kunda Respublikamiz tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlari tizimi faoliyatini tashkil etish va uni takomillashtirishdagi muammolar o'z yechimini topmagan. Shu bois, tijorat banklarida taklif etilayotgan innovatsion bank xizmatlari tizimlarini takomillashtirishga doir mummolarning mavjudligi ushbu tadqiqot ishimizga asos bo'ldi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot davomida maqolada innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishda tijorat banklari masofaviy xizmatlarining ahamiyati ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy, tizimli tahlil, analiz va sintez tamoyillari asosidagi usullardan foydalanib, hamda, analitik tahlil, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlar tahlilidan foydalanilgan holda muammolar aniqlanib, muammolarning yechimi sifatida ilmiy asoslangan takliflar berilgan. Bunda, tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari; Markaziy banklarning yillik hisobotlari, shuningdek, xalqaro reyting agentliklari (Ernst&Young, Tompson Reuters, Blossom va boshqalar)ning tahliliy materiallari va tadqiqotlari manbaa bo'lib xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish yildan-yilga rivojlanib borayotgan bo'lsada, ushbu masofaviy bank xizmatlarining yanada taraqqiy topishida muammolarni yo'q, deb bo'lmaydi. Masofaviy bank xizmatlarida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish va dasturda qulayliklar yaratish orqali mijozlar sonining ortishiga erishish mumkin. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga muammolardan tashqari bir qancha omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramasdan O'zbekiston bank tizimida ham masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish borasida bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va yana jadal ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda banklar mijozlarining soni ortib borishi, ko'plab mijozlarni jalb qilish va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish natijasida o'zlarining daromadini ham ko'paytirish uchun harakat qilmoqdalar. Xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan shuni ko'rish mumkinki, bugungi kunda moliyaviy xizmatlar bozorida masofaviy bank xizmatlarining sifati mijozlarga xizmat ko'rsatishda raqobat kurashining muvaffaqiyatini belgilab beradi [6].

Banklar mijozlariga masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish, zamonaviy bank tizimi taraqqiyotining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va uni rivojlantirishga bir qator omillar ta'sir etadi. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda bu xizmatlarga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olish zarur. Bu ta'sir qiluvchi omillarni ikkiga, ya'ni ichki va tashki omillarga bo'lish mumkin.

1-jadval: Masofaviy bank xizmatlariga ta'sir qiluvchi omillar<sup>1</sup>

№	Ichki omillar	Tashqi omillar
1	Bank xizmatlarining tashkiliy holati: bankning texnologik jixozlanishi; masofaviy bank xizmatlarining foydalanishda soddaligi; masofaviy bank xizmatlarida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi.	Risklar: operatsion risk; moliyaviy risk; boshqa risklar.
2	Bankning marketing siyosati: masofaviy bank xizmatlarining reklama qilinishi; bank saytlarida va aholi o'rtasida masofaviy bank xizmatlari to'g'risida ma'lumotlar berilishi	Sotsial (fuqarolarning sotsial statusi): odamlarning masofaviy bank xizmatlari to'g'risida xabardorligi; bank mijozlarining masofaviy bank xizmatlariga ishonchi; foydalanuvchilarning masofaviy bank xizmatlarini yaqinlariga tavsiya etishi.
3	Masofaviy bank xizmatlarining turlari va narxlari	Foydalanuvchilar uchun masofaviy bank xizmatlarining foydali bo'lishi
4	Bank menejmenti (bank xodimlari va ularning malakasi) hamda moliyaviy savodxonlik darajasi	Faoliyat ko'rsatayotgan bankning geografik (mintakaviy) chegaralari, kengaytirish istiqbollari
5	Masofaviy bank xizmatlari bo'yicha me'yoriy-huquqiy asos yaratilganligi.	Siyosiy omillar: banklarga nisbatan davlatning siyosati; internet tezligi.

Mavjud omillarning masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishga ta'sirini o'rganib chiqish va uni to'g'ri tizimini yuritish bank uchun muhimdir.

*Birinchidan*, ichki omillarga masofaviy bank xizmatlarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan omillarni olishimiz mumkin. Ya'ni har bir masofaviy bank xizmatlarini joriy qilishimizda biron-bir yangi texnologiyalarning imkoniyatlarni bank tizimiga joriy qilish orqali yoki uning imkoniyatlarini bankda qo'llab ko'rish orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, banklar birinchi o'rinda elektron to'lov tizimini tashkil etish va bank faoliyati avtomatlashtirish uchun bank texnologiyalar bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi lozim. So'ngra bu texnologiyalar bilan amalga oshiriladigan tizim, foydalanuvchilar uchun sodda bo'lishi, ya'ni moliyaviy madaniyati yuqori bo'lmagan va texnologik bilimi kamroq bo'lgan aholi ham foydalana olishi mumkin bo'lgan darajada yaratilishi lozim. Bundan tashqari, tizim yaratuvchilari tomonidan foydalanuvchilarning bu tizimga bo'lgan ishonishi uchun ularning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi to'liq ta'minlangan bo'lishi kerak.

*Ikkinchidan*, masofaviy bank xizmatlarini ommalashtirish uchun bankning marketing siyosatini oqilona olib borish talab etiladi. Unga ko'ra masofaviy bank xizmat turlari va ularning imkoniyatlarini bank mijozlari va aholiga yetakazish uchun seminar treninglar o'tkazish orqali bu xizmatlar to'g'risida foydalanuvchilarda ijobiy taasurot uyg'otish muhimdir. Aholi gavjum bo'ladigan joylarda, internet saytlarda, ijtimoiy tarmoqlarda, televideniya va bankning mijozlar bilan ishlaydigan front-ofis va zallarida masofaviy bank xizmatlari to'g'risidagi video roliklarni joylashtirish orqali bu xizmatlarni reklama qilish ham katta samara beradi.

*Uchinchidan*, tijorat banklarining moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida tijorat banklari o'z xizmatlarini takomillashtirib bormoqdalar, xususan, raqobat sharoitida tijorat banklari mijozlarini saqlab qolish va yangi mijozlarni jalb qilishda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish narxini optimalashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashi talab etiladi.

*To'rtinchidan*, zamonaviy bank texnologiyalaridan va ularga asoslangan masofaviy bank xizmatlari tizimlaridan samarali foydalana olishni ta'minlash uchun bank xodimlari va ularning malakalarini oshirish talab etiladi. Bankning o'quv markazi tomonidan muntazam o'quv va amaliy seminarlar tashkil etib borish kerak.

Masofaviy bank xizmatlari rivojlantirilishiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarga:

*Birinchidan*, masofaviy bank xizmatlarida moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda operatsion tizim bilan bog'liq salbiy holatlar va foydalanuvchining noto'g'ri amalga oshirgan operatsiyasi natijasida operatsion riskning yuz berishi, masofaviy bank xizmat tizimlarida muammoli holatlarda moliyaviy yo'qotishlar, foydalanuvchilarning ehtiyotkorsizlik bilan qilgan xatolari natijasida va boshqa holatlardagi moliyaviy yo'qotishlar natijasida moliyaviy riskning vujudga kelishi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1 Muallif tomonidan tuzilgan.



*Ikkinchidan*, odamlarning masofaviy bank xizmatlari to'g'risida xabardorligi, ya'ni masofaviy bank xizmatlari haqida reklamalardan, banklar saytlaridan, yaqinlaridan eshish orqali yoki og'zaki nutqdan eshish orqali xabardor bo'ladi. Ayniqsa, og'zaki nutq orqali virtual muhitda bepul muloqotda masofaviy bank xizmatlari to'g'risidagi so'zlar yoki yaqinlari tomonidan yetkazilishi, iste'molchilarga reklama qilishning ta'siridan ko'ra ta'sirchanroq ekanligini tan olindi.

*Uchinchidan*, banklar mijozlarining soni oshishi va mijozlari hududiy chegarasining kengayishi natijasida banklar filiallari sonini oshirish ko'p xarajatlar bilan bog'liq bo'lganligi uchun, mijozlariga zamonaviy moliyaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanib masofadan bank xizmatlarini ko'satishni talab etadi hamda ortiqcha kuch va xarajatsiz mijozlar sonini va hududiy chegarasini oshirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

*To'rtinchidan*, so'nggi bir necha yil ichida O'zbekistonda internetning moliya bozorida kanal sifatida ishlatish, sotish va mijozlariga xizmat qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtda tijorat banklarida mijozlarning tranzaksiyalari uchun turli tranzaksion modellar va yangi bank xizmatlari orqali qulayliklar yaratilmoqda, pirovardida bank mijozlari vaqti tejaladi, xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi hamda bank xizmatlarining tezligi, shaffofligi, mobilligi oshishi tobora yaxshilanadi. Xukumatning bu kabi bank xizmatlariga nisbatan davlat siyosati darajasida e'tibor qaratishi, albatta, kelgusida o'z ijobiy natijasini beradi.

Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish to'g'risida gap ketganda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan eng muhim jihatlardan biri bu – internet tezligi. Jahonda ham internet tezligi yuqori bo'lgan davlatlarda masofaviy xizmatlar juda yaxshi yo'lga qo'yilganligi, internet tezligi past bo'lganlarda esa buning aksini ko'rishimiz mumkin.

2023-yilning iyun oyi holatiga mobil internet reytingi bo'yicha yetakchilikni Qatar davlatida mobil qurilmalar orqali internetga ulanish tezligi eng yuqori bo'lib, soniyasiga naqd 189,98 megabit tezlik bilan ishlashi qayd etilgan. Birlashgan Arab Amirli davlatida esa 175,34 Mbit/soniyalik ko'rsatkich bilan ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, kuchli uchlikni 171,73 Mbit/soniyalik natija bilan Makkao davlati yakunlab turibdi. Shu o'rinda, O'zbekiston mobil internet tezligi bo'yicha reytingda 104 o'rinni va 20.90 Mbit/soniyalik ko'rsatkich bilan juda past o'rinlardan birini egallagan [6].

2-jadval: Dunyo bo'yicha internetdan foydalanuvchilar soni (2023-yil 1-yanvar holatiga)

Dunyo mintaqalari	Aholi soni (mingta)	Aholi soni (%da)	Internetdan foydalanuvchilar (mingta)	Internetdan foydalanuvchilar (%da)	Internetdan foydalanuvchilarning hududlar kesimida ulushi
Osiyo	4327333,8	54,9%	2707088,1	62,6%	53,6%
Yaqin Sharq	265587,7	3,4%	188132,2	70,8%	3,7
Afrika	1373486,5	17,4%	590296,2	43,0%	11,7%
Okeaniya/ Avstraliya	43473,8	0,6%	29284,7	67,4%	0,6%
Yevropa	835817,9	10,6%	728321,9	87,1%	14,4%
Lotin Amerikasi	659743,5	8,4%	477869,1	72,4%	9,4%
Shimoliy Amerika	370322,4	4,7%	332919,5	89,9%	6,6%
<b>Dunyo bo'yicha jami</b>	<b>7875765,6</b>	<b>100%</b>	<b>5053911,8</b>	<b>63,5%</b>	<b>100%</b>

Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishga sabab bo'luvchi omillardan biri bu, internet tarmog'idan foydalanuvchilarining soni oshib borishi hisoblanadi. Xalqaro telekommunikatsiya jamiyati ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil 1-yanvar oyi holatiga dunyo aholisining 63,5 %i internetdan foydalanmoqda, ularning soni hozirgi kunda 5,0 milliarddan oshganligini ko'rishimiz mumkin (2-jadval). Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, internet-foydalanuvchilari soni 2022-yilda 393710,2 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 5053911,8 mingtaga yetgan. Ya'ni 2023-yilda 2000-yilga nisbatan 1 283 foizga yoki 13 barobarga yaqin ortganini ko'rish mumkin.

Dunyo mintaqalari kesimida qaraydigan bo'lsak, aholining eng ko'p internetdan foydalanuvchilar ulushiga ega bo'lgan mintaqa Shimoliy Amerika bo'lib, aholining 89,9 foizi internetdan faol foydalansa, Yevropada 87,1 foiz aholi, Okeaniya va Avstraliyada 64,7 foiz aholi, Lotin Amerika va Karib dengizi davlatlarida 72,4 foiz aholi, Yaqin Sharq davlatlarida 70,8 foiz aholi va Osiyo davlatlarida 62,6 foiz aholi internetdan foydalanadi. Internet eng kam ommalashgan mintaqa Afrika davlatlari bo'lib, jami aholining 43,0 foizigina bu xizmatdan foydalanadi.

Internet va mobil aloqaning barcha foydalanuvchilari banklar uchun istiqbolli mijozlar hisoblanadi va masofaviy xizmatlarning qulay tomonlarini ko'rsatib berish yo'li bilan ushbu bo'lajak mijozlarni bankka jalb qilish faqat ushbu bankning xatti-harakatlariga bog'liq xolos. Chunki o'z mablag'larini bankda saqlagan jismoniy shaxs masofaviy bank xizmatlari orqali nafaqat o'z hisob raqami to'g'risidagi axborotlarni olishi, balki ko'plab xizmatlardan foydalanganlik uchun to'lovlarini amalga oshirishi mumkin [7].

Shuning uchun, aloqa va internetning kun davomida 24 soat ishlashini inobatga olib banklarda alohida platforma yaratib, operatsion kun bo'lmagan vaqtda ham avtomatik ravishda masofaviy bank xizmatlarida to'lov amaliyotlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish lozim. Bu ayniqsa, iqtisodiyotning raqamlashib borayotgan, to'lov tizimining yildan-yilga tezlashib borayotgan va bank mijozlari sonining ortib borayotgan bir paytda amalga oshirishni talab etadigan muhim vazifalardan biridir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublika tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini tashkiliy asoslarni yanada takomillashtirishga qaratilgan quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

1. Hozirgi paytda masofaviy bank xizmat turlarini ko'paytirish va mavjudlarida yetarlicha innovatsiyalar joriy qilinmayapti, ya'ni masofaviy bank xizmatlari orqali hali bank mijozlari to'laligicha bankka tashrif buyurmasdan barcha bank xizmatlarini amalga oshira olmayapti.
2. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda bank mijozlari va ularning yangi axborot texnologiyalari bilan ta'minlanganlik darajasi pastligi va aholining iqtisodiy savodxonligi pastligi ma'lum bir muammolarni keltirib chiqarmoqda.
3. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni avtomatlashtirilgan tizimini yaratish, natijada pul aylanish tizimini soddalashtiruvchi va yanada tezlashtiruvchi yangi zamonaviy shakllari va vositalarini izlab topishni taqazo etadi.
4. O'zbekiston Respublikasida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy muammolaridan bo'lib, aholining bank tizmiga bo'lgan ishonchidir.

Xulosa qilib aytganda, bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shu jumladan nisbatan xarajati kam bo'lgan elektron raqamli texnologiyalarga asoslangan moliyaviy xizmatlarni joriy qilishni rag'batlantirish mexanizmini yaratish, respublikamiz bo'ylab barcha bank filiallarida 24/7 rejimidagi smartofislarni ochish hamda bank kartalari va ularga xizmat ko'rsatuvchi jihozlar (to'lov terminali, infokiosk va bankomatlar) sonini keskin oshirish orqali bank mijozlari va mamlakatimiz aholisi uchun qulay xizmatlarni taklif etish bugungi kunning dolzarb masalasi sanaladi.

### Adabiyotlar/ Литература/Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son, 13.05.2020-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni// QHMMB: 06.22.60.0082-son, 29.01.2022-y.
3. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).
4. Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров / Н.И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организации.- 2014.-№ 2. – С. 23-27.
5. Корнилова Ю.А. Дистанционное банковское обслуживание: обзор предложений. Экономика современного предприятия. –2011. –№10. –с. 48–54.
6. Nurmuxammedov, A.Y., Bazarova, N.R., Amonova, N.U., Norov, A.R., & Yuldashev, J. A.. (2022). The Role of Commercial Banks in the Development of Investment Activities in the Country. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences*, 122–128. Retrieved from <https://procedia.online/index.php/philosophy/article/view/246>.
7. Nurmuxammedov, A. Y.. (2022). Development Mechanisms of Remote Banking Services by Commercial Banks // *European Journal Of Business Startups And Open Society*, 2(10), 5–10. Retrieved from <http://www.inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/1310>.
8. Speedtest rasmiy veb sayti malumotlari. – <https://www.speedtest.net/global-index#fixed>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.